

DINIY MATNLARDA SIFAT LEKSEMALARNING QO‘LLANILISHI

Ermanova Gulzoda Raxmataliyevna*Namangan viloyati Pop tumani ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
gulzodaermanova3@gmail.com 94 276 71 83*

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy matnlarda, xususan, Qur’oni karim, hadislar va Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf asarlari misolida sifat leksemalarining o‘rni, vazifasi va ma’naviy-estetik yuklamasi tahlil etiladi. Sifatlar diniy matnlarning semantik tuzilmasida muhim rol o‘ynab, Allohning sifatlarini, payg‘ambarlarning fazilatlarini va muqaddas hodisalarni tasvirlashda faol qo‘llaniladi. Tadqiqotda sifat leksemalarining lisoniy funksiyalari, ularning ilohiy ma’no va diniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sifat, diniy matn, Qur’oni karim, hadis, Shayx Muhammad Sodik, semantika, tafsir, tilshunoslik.

Kirish

Tilning asosiy leksik qatlamlaridan biri bo‘lgan sifatlar so‘z turkumi shaxs, narsa, buyumlarning va hodisalarning belgi-xususiyatlarini ifodalab, qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘luvchi vosita sifatida alohida o‘rin tutadi. Diniy matnlarda sifat leksemalari axloqiy, estetik va ideologik yuklamalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada Qur’oni karim, hadislar to‘plami (Al-Jome‘ as-Sahih) hamda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning asarlarida sifatlarining qanday qo‘llanilganligi, ularning diniy va lisoniy funksiyalari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Qur’oni karimda Alloh taoloning go‘zal ismlari va sifatleri eng muhim leksik birliklardandir. Ular asosan 99 ism (Asmo‘ul Husna) shaklida bayon qilingan bo‘lib, ularning barchasi sifat leksemalari asosida shakllangan: Rahmon (muhabbatli), Rahim (rahimli), Alim (biluvchi), Hakim (hikmatli), G‘ofur (kechiruvchi), Aziz (qudratli) va boshqalar. Masalan: "U Rahmon va Rahimdir" (Fotih surasi, 3-oyat). Bu yerda ikki asosiy sifat Allohning mehr-muhabbatga asoslanganligini anglatadi.

(Ixlos surasi) "Alloh yagonadir, Alloh somaddir" kabi sifatlar berilib, Allohning (yagona) tanholigi va (somad) buyukligi haqida gap boryapti.

(Maa‘urun surasi). "Oxiratni yolg‘onga chiqaruvchini ko‘rdingmi? Yetimni qo‘pollik bilan haydaydilar. Va miskinlarga taom berishga qiziqmaydilar". Bunda sifat "yolg‘on, miskin" leksemalar qo‘llanilib, yo‘q, bekor va beva- bechora ma’nolarini anglatyapti.

(Asr surasi). "Illo, iymon keltirganlar va solih amallar qilganlar, bir-birlarini haq yo‘lga chaqirganlar va bir-birlarini sabrga chaqirganlar (undoq emasdir)" Sifat leksemalar "solih" so‘zi qo‘llanilgan.

Shuningdek, Qur'onda mo'minlarning sifatlari ham ko'plab oyatlarda bayon etilgan. Jumladan: "Mo'minlar – sabr qiluvchilardir, sodiqlardir, itoat qiluvchilardir" (Ahzob surasi, 35-oyat). Bu yerda sabrli, sodiq, itoatli kabi sifatlardan foydalanilib, haqiqiy mo'minning fazilatlarini tavsiflanadi. Shuningdek, ijobiy (halol, pokiza, adolatli) va salbiy (kofir, zolim, buzg'unchi) sifatlari orqali axloqiy baholash ham beriladi.

Al-Jome' as-Sahih (Sahih al-Buxoriy) hadislar to'plamida sifatlari insoniy fazilatlar va axloqiy qadriyatlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) haqida ko'plab hadislar u zotning yuksak fazilatlarini tasvirlaydi: "Payg'ambar halim, sodiq, adolatli, saxiy, va o'z ahli bilan muloyim edi". Bu kabi sifatlari nafaqat tarixiy tavsif, balki musulmonlar uchun axloqiy namuna ham hisoblanadi.

(“Sevishlik iymondandir” 7- Bob)Rasululloh sallalohu alayhi vasallam aytganlar:”Toki meni otangizdan ham,bolangizdan ham,barcha odamlardan ham yaxshiroq ko'rmas ekansiz, birortangiz mo'min bo'la olmaymiz”. Berilgan hadisda payg'ambarimiz alqovi sifat so'z turkumi bilan “sallalohu alayhi vasallam” ifodalanmoqda.

(“Salom berish islom amallaridandi” 20-Bob)Sahoba Ammor aytganlar:Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sdaq berib turmoq.

Rasululloh sallalohu alayhi vasallamdan bir kishi so'radi: “Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir? Dedilar: “Ochlarga taom bermoqlik,tanigan va tanimaganga salom bermoqlik”.

Yuqoridagi hadisda ham sifat leksemalar (yaxshi va ochlar) shaxs va narnasalarning xil-xususiyatini ochib beish uchun qo'llanilyapti.

Shuningdek, hadislar orqali musulmon kishining qanday bo'lishi lozimligi quyidagi sifatlari orqali ifodalanadi: sabrli, halol, xushmuomala, toza, halim, mehribon, sadoqatli va boshqalar. Masalan, “Mo'min kishining sifati halollik, vafodorlik va saxovatdir” kabi rivoyatlar ko'p uchraydi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning asarlarida, xususan “Tafsiri Hilol”, “Imon”, “Islom tarixi” singari asarlarida sifat leksemalari keng qo'llanilgan. U kishining tafsirlarida Qur'ondagi ilohiy sifatlari zamonaviy o'quvchiga tushunarli tilda izohlanadi. Masalan: “Allohning adolatli bo'lishi – bu Uning har ishida hikmat va tartib mujassamligidir”. Bu yerda “adolatli”, “hikmatli” kabi sifatlari falsafiy va axloqiy ma'no kasb etadi.

Yana bir misol: Shayxning “Yodda tuting!” asarida “Halol mehnatli, pokiza qalbli, tavozeli insonlar jamiyat ustunidir”, degan fikrlari uchraydi. Bu yerda sifatlari orqali axloqiy qadriyatlar ifoda etilgan.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, diniy matnlarda sifat leksemalari ma'no yuki jihatidan g'oyat boy va ko'p funksiyalidir. Ular nafaqat tasviriyy vosita, balki diniy, axloqiy va ma'naviy tushunchalarni uzatuvchi semantik birlikdir. Qur'oni karimda Alloh va mo'minlar tavsifi, hadislar va tafsir asarlarida insoniy fazilatlarining tavsifi sifatlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa sifatlarini chuqur lisoniy va diniy tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf.
2. Al-Jome' as-Sahih – Imom Buxoriy. Hadislar tarjimasi va sharhi.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol, Yodda tuting!, Imon.
4. Suyunova Z. Teolingvistika asoslari. – Toshkent, 2018.
5. Qo'chqorov O. Zamonaviy o'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2010.
6. Norqulova G. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2019.
7. Sirojiddinov Sh. Til va tafakkur. – Toshkent, 2015.